

## JAVPAYADA NIMA GAPLAR?



### **JAVPAYADA NIMA GAPLAR?**

Tumanimizning Qal'acha mahallasidagi Javpaya massivida viloyat hokimi qarori asosida boshlangan o'quv mashg'ulotlari davom etmoqda.

Tuman FV bo'limi boshlig'i Jaloliddin Jalolovning bizga bergan ma'lumotiga ko'ra, o'quv mashqi davomida shu kunga qadar damba mustahkamlash tadbirida 120 kub-metr xarsangtoshlar tayyorlanib yuklab keltirildi, issiqxona tayyorlash tadbirida 2 160 kub-metr tuproq ishlari bajarildi.

O'quv mashg'ulotlar boshidan damba mustahkamlash bo'yicha 4 100 kub-metr tuproq, 120 kub-metr xarsangtosh ishi hamda issiqxona tayyorlash bo'yicha 10 260 kub-metr tuproq ishlari bajarildi.

Tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan hududni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish uchun 50 dona sosna kuchati ekildi.

Javpaya massivida kompleks o'quv mashg'ulotlari davom ettirilmoqda.

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

2022-02-04 17:11:23